



QASHQADARYO VOHASIDA SHAHRLARNING RIVOJLANISH TARIXI

Muminov Bekzod

Madaniy meros agentligi bosh mutaxassisi,
Tel: +998 507565255.

e-mail: bekdzodmuminov253@icloud.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17876066>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 08-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 10-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

*Qashqadaryo, Naxshab, Nasaf,
Qarshi, shaharsozlik,
arxeologiya, Sug'd, Baqtriya.*

ABSTRACT

Maqolada Qashqadaryo vohasida shaharsozlik taraqqiyotining qadimgi davrlardan o'rta asrlargacha bo'lgan bosqichlari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda arxeologik ma'lumotlar, xususan, Naxshab-Nasaf (hozirgi Qarshi) hududida olib borilgan qazishmalar, Yerqo'rg'on, Kofirtepa, Ayritom, Uchtepalar kabi yodgorliklardan topilmalar asosida shahar makonining evolyutsiyasi yoritiladi. Qashqadaryo vohasi janubiy Sug'd va Shimoliy Baqtriya o'rtasidagi geografik o'rin sababli qadimdan muhim madaniy, iqtisodiy va harbiy markaz bo'lgan. Shaharlarning shakllanishida irrigatsiya tizimlari, savdo yo'llari, siyosiy-madaniy jarayonlar kesishgan holda shakllangan tarixiy bosqichlar izchil tahlil etilgan.

Qashqadaryo vohasi O'zbekiston janubidagi eng qadimiy urbanistik hududlardan biri bo'lib, uning shahar madaniyati miloddan avvalgi davrlardan boshlab shakllangan. Vohaning tabiiy-geografik sharoiti, suv manbalari, qadimgi karvon yo'llari va siyosiy markazlarga yaqinligi bu hududda shaharlar tizimining barvaqt vujudga kelishiga imkon yaratgan.

Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, xususan S.K. Kabanov, M.E. Masson [8], R. Sulaymonov kabi tadqiqotchilarning ishlari Qashqadaryo vohasining shaharsozlik tarixini rekonstruksiya qilishga imkon beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Naxshab (Nasaf) vohaning markaziy shahri sifatida milodiy III-VIII asrlarda eng yuksak rivoj bosqichiga etgan.

Qashqadaryo viloyati, O'zbekistonning janubi-g'arbida joylashgan bo'lib, tarixiy jihatdan boy madaniy merosga ega hududlardan biridir. Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasidagi shaharlarning rivojlanish tarixi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi - Qashqadaryo shaharlarining tarixiy rivojlanishini, ularni shakllantirgan omillarni va zamonaviy davrdagi tendensiyalarni o'rganishdir.

Qashqadaryo viloyati davlat tarixida muhim o'rin tutadi. Ushbu hudud asrlar davomida turli madaniyatlar va xalqlar uchun bog'lanish nuqtasi bo'lib xizmat qilgan. Maqolaning maqsadi Qashqadaryo vohasidagi shaharlarning tarixiy rivojlanishini, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini tahlil qilishdan iborat. Bu jarayonlar jamiyatning o'zgarishlari va taraqqiyotini qanday yo'naltirganini ko'rsatadi.

Asosiy tahlil va natijalar. Qashqadaryo vohasining shaharlar tarixi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bu hududda dastlabki shaharlar miloddan avvalgi II asrda paydo bo'lgan. Ularning rivojlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy omillar, savdo yo'llarining o'tishi va tabiiy resurslarning mavjudligi katta ta'sir ko'rsatgan.

Dastlabki shaharlar, asosan, agrar iqtisodiyotga asoslangan bo'lib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Bu davrda shaharlar o'zaro savdo aloqalarini o'rnatib, hunarmandchilikni rivojlantira boshlagan.

Qashqadaryo vohasining shaharlar tarixi miloddan avvalgi I ming yillik boshlariga borib taqaladi. Arxeologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bu hududda dastlabki shaharlar, masalan, Kesh (bugungi Shahrisabz) [7] va boshqa joylarda qadimiy qadimiy aholi punktlari paydo bo'lgan. Bu davrda iqtisodiy faoliyat dehqonchilik va chorvachilik bilan cheklangan bo'lib, shaharlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni savdoga chiqarish markazlariga aylandi.

Shaharlarning rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari:

- Savdo yo'llarining o'tishi: Qashqadaryo vohasi, Buyuk Ipak yo'lining bir qismi sifatida, savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan.

- Tabiiy resurslar: Mintaqada mavjud bo'lgan suv manbalari va tuproqning unumdorligi shaharlarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Arxeologik qazishmalar Qashqadaryo vohasidagi eng qadimiy shahar tipidagi manzilgoh sifatida **Yerqo'rg'onni** ko'rsatadi. Bu yodgorlikning IV–V asrlarga oid kuchli mudofaa devorlari bo'lganligi haqidagi xulosalar Kabanov tomonidan asoslab berilgan: "Yerqo'rg'onning qudratli fortifikatsiya tizimi milodiy IV–V asrlarda shakllangan" [6].

Yerqo'rg'onning markaziy qismi, qal'a va qo'shimcha mudofaa elementlari vohada barvaqt davlatlashuv jarayonlarining borligini ko'rsatadi.

Sug'd-Baqtriya kesishmasida shakllangan madaniyat. Qashqadaryo qadimda ikki yirik madaniyat – Sug'd va Baqtriyaning tutashgan nuqtasi bo'lgan. Sulaymonovning fikricha, bu hudud "Sharq va G'arb madaniy oqimlari chorrahasi" bo'lgan [9, 14]. Bu kesishuv shahar shakllanishini tezlashtirgan va madaniy qatlamlarning boyligiga sabab bo'lgan.

Kabanovga ko'ra, Naxshabning ilk rivojlanish bosqichi milodiy III–IV asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrga oid turli tipdagi sopol idishlar, ustaxonalar, kulolchilik pechlari va boshqa topilmalar shahar xo'jaligining rivojlanganligini tasdiqlaydi:

- "Yerqo'rg'on va Neguztepada aniqlangan materiallar III–IV asrlarga mansub bo'lib, ularning texnik jihatdan takomillashganligiga e'tibor qaratilgan" [6].

Kulolchilik, metallsozlik, savdo hujayralari – bularning barchasi shaharning barqaror iqtisodiy tuzilmasi borligini ko'rsatadi.

Milodiy V asrda Qashqadaryo vohasi Kidar ridlar siyosiy hukmronligi ostida bo'ladi. Kabanovning fikricha, aynan Naxshab ularning muhim siyosiy markaziga aylangan: - "Kidar ridlar markazlaridan biri Naxshab bo'lib, ular milodiy 420-yillarda bu hududga joylashganlar" [6].

Bu davrda shahar yanada o'sib, irrigatsiya tizimi kengayadi, mudofaa devorlari takomillashadi [3].

IX–X asrlarda Nasaf shahar hayoti keskin ravishda kengayadi. Ko'plab arxeologik topilmalar buni tasdiqlaydi. Kabanov bu davr qatlami haqida shunday yozadi: "IX–X asrlar

qatlamlarida oq-sirilgan polivli idishlar, rivojlangan kulolchilik an'analari mavjudligi shaharning iqtisodiy qudratini ko'rsatadi" [6].

Shahar atrofida hunarmandlar mahallalari, istiqomat qiluvchi qishloqlar, va alohida mudofaa tizimlari shakllangan.

Nasafdanoq vohada yirik mudofaa yodgorliklari paydo bo'ladi:

–**Qo'rg'ontepa**: X–XII asrlarga mansub arxitektura yodgorligi [6, 52].

–**Kofirtepa, Uchtepa** yodgorliklari: IX–XII asrlar madaniy qatlamlari bilan mashhur [6, 1-2]. Bu yodgorliklarning markaziy hududlari shahar atrofida yirik qishloq shaharchalar tizimining mavjudligini ko'rsatadi.

Qazishmalar natijasida ko'p xonali uylar, peshtoqsimon kirishlar, hovli ichidagi xo'jalik binolari aniqlangan. Ularning aksariyati IX–XI asrga oid.

Arxeologlar tomonidan topilgan: metall eritish uchun o'choqlar, kulolchilik pechlari, ko'plab idishlar, kosalar, shisha idishlar [6, 90], bular shaharning yuqori darajadagi iqtisodiy faoliyatga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Nasaf orqali o'tgan savdo yo'llari qadimiy Sug'd va Baqtriya iqtisodiy tizimlarini bog'lagan [5]. Shisha idishlar, import qilinadigan tovarlar, zarbxona namunalarining topilishi bunga ishora qiladi.

O'rta asrlarda Qashqadaryo vohasi Samarqand va Buxoroning ta'siri ostida rivojlanishni davom ettirdi. Ushbu davrda shaharlar, savdo va madaniyat markazlariga aylanishdi [2]. Qashqadaryo shaharlarida hunarmandchilik, dastgohlar va savdo bozorlari paydo bo'ldi. Shahrisabz, Qarshi va boshqa shaharlar iqtisodiy jihatdan mustahkamlandi.

Masalan, Shahrisabz shahrida Amir Temur davrida qurilgan obidalar, qadimiy me'moriy yodgorliklar va madaniy muassasalar bu davrning o'ziga xosligini aks ettiradi. Ushbu asrda hunarmandlar va savdogarlar o'rtasida o'zaro aloqalar kuchayib, shaharlar iqtisodiy jihatdan mustahkamlandi.

O'rta asrlar davomida shaharlar hunarmandchilik va savdo sohalarida rivojlanish ko'rsatdi. Ular savdogarlar va hunarmandlar o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamladi [1].

Shahrisabzda Amir Temur davrida qurilgan obidalar va me'moriy yodgorliklar, bu davrning madaniy va iqtisodiy o'sishini aks ettiradi.

Qashqadaryo shaharlarida madaniy hayot tarixiy jihatdan boydir. Ushbu vohada ko'plab an'anaviy festivallar, madaniy tadbirlar va san'at ko'rgazmalari o'tkaziladi. Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish maqsadida mahalliy hokimiyatlar tomonidan turli tadbirlar tashkil etiladi [4].

Shuningdek, Qashqadaryodagi ta'lim muassasalari zamonaviy talablar darajasida ta'lim berish bilan birga, madaniy merosni o'rganish va yosh avlodga etkazish borasida faoliyat ko'rsatadi.

Qashqadaryo vohasining madaniy merosi mahalliy xalq san'ati, musiqasi va raqs an'analari Qashqadaryo vohasi madaniyatining muhim qismini tashkil etadi. Ta'lim muassasalari madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga e'tibor qaratadi, yosh avlodni an'analar bilan tanishtiradi.

XULOSA. Qashqadaryo vohasida shaharlarning rivojlanishi bir necha ming yillik jarayonni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar ko'rsatdiki:

1.Yerqo'rg'on vohaning ilk shahar markazi bo'lib, milodiy IV–V asrlarda kuchli davlat tuzilmasiga ega bo'lgan.

2.Naxshab Sug'd va Baqtriya madaniy aloqalarining kesishgan nuqtasida shakllangan.

3.V–VIII asrlarda siyosiy markazlashuv kuchayib, shahar iqtisodiy va harbiy markazga aylangan.

4.IX–XII asrlarda Nasaf O'rta Osiyoning yirik iqtisodiy, hunarmandchilik va savdo markazlaridan biri sifatida shakllangan.

5.Arxeologik topilmalar shahar hayotining yuqori darajada rivojlanganligini ilmiy asos bilan tasdiqlaydi.

Shunday qilib, Qashqadaryo vohasining shaharsozlik tarixi mintaqaning umumiy sivilizatsion rivojida muhim o'rin tutadi.

Qashqadaryo viloyatidagi shaharlar tarixi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi O'zbekistonning umumiy tarixida muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada ko'rsatilgan tendensiyalar, shaharlarning kelajakda rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. Qashqadaryo shaharlarining tarixi va badiiy merosi, o'zaro aloqalar va savdo, madaniyat va ilm-fan rivoji bilan bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, R. Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy rivojlanishi. Qarshi: Qarshi davlat universiteti, 2019.
2. Iskandarov, M. O'rta asrlar shaharlarining madaniyati. Bukhara: Buxoro davlat universiteti, 2021.
3. Murodov, A. Qashqadaryo vohasining tarixi. Tashkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2020.
4. Turaev, A. O'zbekistonning madaniy merosi. Tashkent: Fan va texnologiya, 2022.
5. Зимин Л.А. Нахшаб, Несеф, Карши. – Т., 1927.
6. Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья (III–VII вв.). Ташкент, “Фан”, 1977.
7. Литвинский Б.А. Кочевники Кушанской эпохи. – Л., 1975.
8. Массон М.Е. Столичные города низовьев Кашкадари. – Т., 1972.
9. Сулаймонов Р. Нахшаб – унутилган тамаддун сирлари. Тошкент, “Маънавият”, 2004.